



XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko`chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 13 - iyun

VI-61-107-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

Tuman mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan mablag' ajratish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomiga muvofiq tuman budjetining 2023-yil 1-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'laridan foydalanish bo'yicha xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 126-moddasiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 8-apreldagi QQ-331-VI-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizomi bilan mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalaridan foydalanish tartibi belgilab qo'yilganligi, tuman hokimligi hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy budjetining 2023-yil I-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi 500,0 mln.so'mni tashkil etganligi va ushbu manbalardan ajratilgan mablag'lar ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan yo'naltirilgan mablag'lar to'g'risida xalq deputatlari tuman Kengashiga har chorak yakuni bilan tuman hokimi tomonidan hisobot berib borilishi belgilansin.

4. Tuman mahalliy budjetining qo'shimcha manbalari hisobidan mablag' oluvchilarining rahbarlari ajratilgan mablag'lardan maqsadli va samarali foydalanishi, shuningdek ushbu mablag'larni ajratilishi uchun taqdim etiladigan barcha hujjatlarning haqqoniyligiga shaxsan javobgar ekanligi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi R.Kabulova zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi



Q.Mardonov

Xalq deputatlari Angor tuman Kengashining
2023-yil 13-iyundagi
VI-61-107-8-109-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tuman mahalliy budjetining 2023-yil 1-chorak yakuniga ko'ra qo'shimcha manbalar hisobidan ajratilgan mablag'lar

T/r	Tashkilotlar nomi	Sohalar bo'yicha ajratilgan mablag' maqsadi	Miqdori (ming.so'mda)	Foiz hisobida
1	2	3	4	5
	Jami tuman budjetining 2023-yil 1-chorak yakuni bo'yicha belgilangan daromadlar rejasining orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag'lar		500 000,0	100%
	Jami summasi		14 948,0	3,0%
I.	Tuman hokimligi va boshqa budjet tashkilotlarini ta'mirlash va moddiy texnika bazasini mustahkamlash hamda ish xaqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar uchun		14 948,0	3%
1,1	Tuman hokimligi	O'zbekiston Respublikasi Referendumini o'tkazuvchi 9-Surxondaryo okrug komissiyasining 2023-yil 3-maydagi 02-41/23-sonli xatini inobatga olib, Angor tumani hokimning jamoatchilik bilan ishlash bo'yicha maslahatchisini moddiy rag'batlantirish xarajatlari uchun	14 948,0	3,0%